

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MA’MUN UNIVERSITETI**



**“YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING**  
**TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**2025-yil 22-fevral**

**URGANCH – 2025**

**UO‘K: 338.23:330.15(082)**

**KBK 65.28+28.080.1**

**Ya 96**

“Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari [Matn] / “Ma‘mun universiteti” NTM.- Xorazm: Khwarezm publication, 2025.- 618 b.

Hozirgi kunda zamonaviy iqtisodiyotda yashil rivojlanish tamoyillarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ilmiy-amaliy izlanishlarni talab qiladi. Mazkur masala bo‘yicha ilmiy konferensiyalar tashkil etilishi, akademik muhitda dolzarb muhokamalar olib borilishi ushbu yo‘nalishda samarali takliflarni ilgari surishga xizmat qiladi. Ta‘lim tizimida yashil iqtisodiyot tamoyillarini chuqur o‘rganish esa kelajak avlodning ekologik va iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy muassasalar va ta‘lim tizimi o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur to‘plamga iqtisodiy va tabiiy resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlari, sanoat va energetika, qishloq xo‘jaligi hamda xizmatlar sohalari muammolarini bartaraf etishdagi yashil yechimlar, atrof-muhit va aholi turmush sifatini yaxshilash masalalariga oid materiallar kiritilgan.

**Ma’sul muharrir:** DSc., prof. U.R.Matyaqubov

**Tahririyat hay’ati:** S.O‘.Sharifzoda, E.M.Xudoynazarov, E.B.Ibadullayev  
A.B.Sherov, M.M.Matkarimov, F.S.Xolmurodov, S.M.Rahimova, Sh.R.Jumaniyazova

**Taqrizchilar:** i.f.d., prof. B.Ruzmetov, i.f.d., prof. Z.T.Mamadiyarov

Ushbu konferensiya to‘plami mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, talaba va magistrantlar uchun foydali bo‘ladi deb umid qilamiz.

*Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar.*

*Konferensiya o‘tkazilishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabr 490-sonli buyrug‘i yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.*

*Ushbu konferensiyasi materiallari Ma‘mun universitetining 2025-yil 25-yanvar 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.*

**ISBN: 978-9910-632-36-5**

© “Ma‘mun universiteti” NTM, 2025  
© “Khwarezm publication” nashriyoti, 2025

## MINTAQADA “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH ASOSLARI

**Samiyeva Gulnoza Toxirovna,**

*QarDTU “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqada yashil iqtisodiyotga o‘tish, uning maqsadi va vazifalari, mintaqada “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o‘tishni ta’minlash masalalari haqida fikrlar bayon etilgan. Maqola orqali “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etishini hamda tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi omillarga bevosita bog‘liq bo‘lishini bilib olish mumkin. Shuning uchun o‘tish jarayoni qulay muhit – huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.lar bilan ham bog‘langan holda hosil bo‘ladi, yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq etish maqolada dolzarb masalalar ekanini aks ettiradi.

**Kalit so‘zlar:** “yashil” iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, “yashil iqtisodiyot” strategiyasi, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, “yashil” investisiyalar

**Аннотация.** В данной статье описан переход к зеленой экономике в регионе, его цели и задачи, а также вопросы обеспечения устойчивого экономического роста региона на основе «зеленой экономики». В статье показано, что переход к «зеленой экономике» имеет особое значение для каждой страны и напрямую зависит от таких факторов, как природный капитал, человеческий капитал, а также уровень экономического развития страны. Поэтому процесс перехода формируется при сопровождении его благоприятной средой – правовой инфраструктурой, стимулирующими факторами и т. д., и изучение особенностей поддержки и развития перехода к зеленой экономике является актуальной проблемой статьи.

**Ключевые слова:** «зеленая» экономика, переход к «зеленой» экономике, стратегия «зеленой экономики», концепция «зеленой экономики», «зеленые» инвестиции.

**Abstract.** This article describes the transition to a green economy in the region, its goals and objectives, as well as issues of ensuring sustainable economic growth in the region based on the "green economy". The article shows that the transition to a "green economy" is of particular importance for each country and is directly dependent on factors such as natural capital, human capital, and the country's level of economic development. Therefore, the transition process is formed in conjunction with a favorable environment - legal infrastructure, incentive factors, etc., and the article reflects the fact that studying the features of supporting and developing the transition to a green economy is a pressing issue.

**Keywords:** "green" economy, transition to a "green" economy, "green economy" strategy, "green economy" concept, "green" investments.

O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturil-amal hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi [PQ-4477-son].

XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o‘tishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu esa o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha

yoʻnalishlari: qishloq xoʻjaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurulish sohalari barchasi “yashil” tus olishi muhimligini anglatadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqida “2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasining” mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan toʻla mos kelishini taʼkidlab oʻtgan [Sh.M.Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqi].

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining nisbatan toʻliq taʼrifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, “yashil iqtisodiyot” – bu “insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir [Арендаль, 2011]. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi.

“Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish suv resurslaridan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, oʻrmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim oʻzgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi. Yuqoridagi xorijlik mutaxassislarning fikriga koʻra, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish uchun ishlab chiqarishning turli sohalarida keng tarqalgan 10 ta ekologik koʻnikma, yaʼni: dizaynerlik, liderlik sifatleri, boshqaruvchilik qobiliyati, energetik, shaharlarni rejalashtirish, landshaft dizayni, muloqot olib borish, chiqindilarni boshqarish, sotib olish va moliyaviy koʻnikmalarga talab katta.

Oʻzbekistonda bir dehqon 10-13 ta odamni boqayotgan bir paytda “yashil iqtisodiyot”ga oʻtgan “yashil” davlatlar – Shvetsiya, Finlyandiya va Janubiy Koreyada 1 dehqon 50-60 ta odamni boqmoqda [Экологические проблемы Узбекистана, 2021]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayta tiklanuvchi energiya manbalarini koʻpaytirish boʻyicha ustuvor vazifalarni belgilab bergan. Ushbu vazifalar qatorida yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga boʻlgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortigʻi bilan qoplashga yetarli ekani hisobga olinib, soʻnggi yillarda bu sohada huquqiy baza yaratilgani tufayli investorlar uchun jozibador muhit shakllangani ham qayd etildi. Shunga oid “yashil energiya” manbalarini barpo qilish boʻyicha yurtimizda katta dasturlar boshlandi. Bugungi kunga qadar sohaga 2,1 milliard dollar toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya kirib keldi, yana 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda. Jumladan, ijtimoiy soha obyektlari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlarga tegishli binolar va aholi xonadonlarida umumiy quvvati 457 megavattli quyosh panellari oʻrnatildi. Qashqadaryo viloyatida ham 2 gigavattli quyosh stansiyasini ishga tushirish masalasi koʻrildi.

Joylarda quyosh panellarini oʻrnatish boʻyicha ishlarni yanada kengaytirish, aholining “yashil” energiyadan foydalanish borasidagi intilishlarini qoʻllab-quvvatlash muhimligi taʼkidlandi. Tadbirkorlarga quyosh energiyasi quvvatlarini joriy etishda manfaatdorligini oshirish uchun qoʻshimcha yengilliklar yaratilishi belgilandi.

Qashqadaryo viloyatida “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish uchun dastlab qayta tiklanuvchi, muqobil manbalardan foydalanish davlat dasturlarini bajarish vazifasi topshirildi. 1-jadvalda Qashqadaryo viloyatida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari toʻgʻrisida maʼlumot berilgan.

**Qashqadaryo viloyatida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari to'g'risida ma'lumot (2023 yil)**

№	Tuman/ shahar nomi	Jami o'rnatilgan qurilmalar							
		Obyekt soni		Quyosh panellari quvvati (kVt)			geliokollektor (ming litr)		
		reja	fakt	Reja	fakt	bajarilishi (foizda)	reja	fakt	Bajarilishi (foizda)
<b>Viloyat jami</b>		<b>4066</b>	<b>3570</b>	<b>54 114</b>	<b>30 677</b>	<b>56,7</b>	<b>78,3</b>	<b>79,3</b>	<b>101</b>
1	G'uzor	249	162	3 060	1 396	45,6	1,4	4,4	323
2	Dehqonobod	180	168	2 174	1 911	87,9	7,2	3,1	42
3	Qamashi	260	261	3 150	1 389	44,1	2,3	3,1	131
4	Qarshi tum	292	225	3 780	1 919	50,8	8,0	3,3	41
5	Kasbi	223	229	2 710	1 328	49,0	9,3	2,9	31
6	Kitob	260	361	3 590	1 661	46,3	4,6	2,4	52
7	Koson	287	240	3 770	1 459	38,7	6,0	2,8	46
8	Mirishkor	203	116	2 400	1 393	58,0	1,2	3,2	267
9	Muborak	166	121	2 140	2 993	140	0,8	3,3	401
10	Nishon	198	136	2 480	1 659	66,9	2,4	2,6	107
11	Chiroqchi	269	316	3 750	1 543	41,1	3,6	10,6	293
12	Ko'kdala	172	176	2 020	913	45,2	2,5	7,6	299
13	Yakkabog'	275	335	3 750	1 566	41,8	11,6	15,5	134
14	Shahrisabz t	227	151	2 500	1 132	45,3	1,6	2,0	121
15	Shahris.sh	276	203	4 110	1 724	41,9	3,9	6,6	168
16	Qarshi sh	531	370	8 730	6 694	76,7	11,6	6,0	52

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati hududida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya jami 3570 ta obyekt mavjud bo'lib, reja bo'yicha 4066 ta bo'lishi kerak edi. Bu esa 496 taga bajarilmaganini, yoki 87 %ga bajarilganini bildiradi. Ushbu obyektlardan eng ko'pi Qarshi shahar (370), Kitob tumani (361), Yakkabog' tumani (335), Chiroqchi tumani (316), Qamashi tumani (261), Koson tumani (240) bajarilganiga qaramay, reja va fakt orasidagi farq katta. Masalan, Qarshi shahrida 531 ta rejada belgilangan, ammo 370 taga bajarilgan. Bu 161 ta kamga bajarilganini anglatadi.

Ammo Kitob tumanida obyektlar soni rejada 260 ta bo'lishiga qaramasdan 361 taga bajarilgan, ya'ni 101 taga yoki 138,8 %ga oshirib bajarilgan. Jadvaldagi ma'lumotdan ko'rish mumkinki, quyosh panellari quvvati Qashqadaryo viloyati reja bo'yicha 54114 kvt bo'lsa, amalda 30677 kvt ga bajarildi, bu esa 56,7 %da bajarilganini anglatadi [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari].

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanmoqda. Bundan tashqari, tabiatda tabiiy ofatlar – toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari, zilzilalar kabilar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatini buzmoqda. Qayd etib o'tilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda "yashil iqtisodiyot"ning tor va keng ma'nodagi ta'riflarini farqlash mumkin. Tor ma'noda "yashil iqtisodiyot"ni an'anaviy iqtisodiyot bilan yonma-yon rivojlanayotgan muayyan tarmoqlar yig'indisi sifatida tavsiflash mumkin. Keng ma'noda esa

“yashil iqtisodiyot” uchun muhim dinamik jihat, ya’ni iqtisodiy tizimda ekologiyaga yo’naltirilgan o’zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, “barqaror rivojlanish”, “yashil o’sish” va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik “yashil iqtisodiyot” tushunchasining mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish “yashil o’sish”ni ta’minlab beradi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ko’maklashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi “2019 – 2030 yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-son Qarori

2. Sh.M.Mirziyoyev (2017) BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqi, <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1063>

3. Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др. (2011) Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности // ЮНЕП/Грид Арендаль. С17.

4. Вестник (2021) Экологические проблемы Узбекистана. <https://evolelium.com>.

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari

### **ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРИРОДНЫМИ И ЭКОНОМИЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

**Рустамова Махфуза Махмудовна**  
*Ферганский Политехнический институт*

**Аннотация:** Globallashuv sharoitida tabiiy va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish barqaror rivojlanish va mamlakatlar va mintaqalarning raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayoni iqtisodiyotlarning o’zaro bog’liqligining kuchayishi bilan kechmoqda, bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirishning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etishni taqozo etadi.

**Калит so’zlar:** samarali boshqaruv, ekologik muvozanat, yashil iqtisodiyot, globallashuv, barqaror rivojlanish

**Аннотация:** В условиях глобализации эффективное управление природными и экономическими ресурсами становится ключевым фактором устойчивого развития и обеспечения конкурентоспособности стран и регионов. Процесс глобализации сопровождается ростом взаимозависимости экономик, что требует внедрения современных методов и инструментов для рационального использования природных богатств и оптимизации экономических процессов.

**Ключевые слова:** эффективное управление, экологическое равновесие, зеленая экономика, глобализация, устойчивое развитие

**Abstract:** In the context of globalization, effective management of natural and economic resources is becoming a key factor in sustainable development and ensuring the competitiveness of countries and regions. The process of globalization is accompanied by increasing interdependence of economies, which requires the introduction of modern methods and tools for the rational use of natural resources and optimization of economic processes.

**Keywords:** effective management, ecological balance, green economy, globalization, sustainable development

Узбекистан, расположенный в Центральной Азии, обладает значительным потенциалом в области природных и экономических ресурсов, которые играют важную роль в его экономическом и социальном развитии. Экономика страны в последние десятилетия претерпела ряд изменений, что обусловлено как внутренними, так и

<b>Madraximov Q., Bekbergenov G'.</b> Iqtisodiy va tabiiy resurslardan samarali foydalanishda yashil iqtisodiyotning o'rne	76
<b>Захидова З.</b> Ўзбекистонда “яшил иқтисодиёт”ни ривожлантириш омиллари ва меъерий-хуқуқий асослари	78
<b>Matkarimov I., Yaqubov S.</b> Mintaqada yashil iqtisodiyot va islom moliyasining eksportni rivojlantirishdagi o'rne	81
<b>Qo'zibayev B.</b> O'zbekistonda yashil iqtisodiyot rivojlanishini ekonometrik modellashtirish	83
<b>Sirojiddinov K.</b> Tadbirkorlarning milliy va xalqaro iqtisodiy tizimlarga integratsiyasi	86
<b>Atajonova S.</b> Barqaror rivojlanish sharoitida iqtisodiy va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning tizimli tahlil asosidagi innovatsion yondashuvlari	90
<b>Abduvosidova G.</b> The role of islamic finance in the development of the world economy	93
<b>Madraximov Q.</b> O'zbekistonda elektron hukumatning mavjud imkoniyatlari va modellari	96
<b>Davlyatshayev A., Obidov M.</b> Hududiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning o'rne	98
<b>Samiyeva G.</b> Mintaqada “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asoslari	101
<b>Рустамова М.</b> Эффективное управление природными и экономическими ресурсами в условиях глобализации	104
<b>Jumabayev B., Mamaraymova Sh.</b> Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi sharoitida aydararnasoy ko'llar tizimi baliq resurslaridan samarali foydalanish	107
<b>Usmonov A.</b> Bozor iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida inson resurslaridan samarali foydalanish	109
<b>Mamadiyorov O.</b> Suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirish zaruriyati	111
<b>Butanova D., Muratova S.</b> The significance of forecasting the structure of the agricultural economy in the development of the regional economy	114
<b>Ermatov A.</b> Korxonada xususiy kapitalni samarali boshqarishda tahlilning o'rne	118
<b>Yormatov I.</b> Основные направления эффективного использования экономических и природных ресурсов в Узбекистане	120
<b>Sherov E.</b> Mintaqada sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillari	123
<b>Қўлметов М.</b> Тижорат банклари ўртасидаги рақобатни , баҳолаш моделлари.	126
<b>Исмоилова С.</b> Молиявий ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлаш масалалари	128
<b>Бабаджанов Б.</b> Нажот сувлари. амударё дельтаси орол ва каспий денгизи муаммоларига оид масалалар	131
<b>Rajabov A.</b> The impact of energy consumption (renewable and non-renewable) on the economic development of a country: evidence from Uzbekistan	134
<b>Mamadiyorov O.</b> Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari	138
<b>Абдувалиева К.</b> К вопросу рационального использования природных ресурсов и применения «зеленых» технологий	141
<b>Sharipov K., Jumaniyazova Sh.</b> Mintaqada turizm salohiyatidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari	143
<b>Savutov R., Davlatova S.</b> Quyosh panellarining samaradorligini aniqlashga oid mulohazalar (xonadon misolida)	145
<b>Yaqubova Y., Jumanazarova M.</b> Iqtisodiy va tabiiy resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlari	150
<b>Karimova M.</b> Xorazm viloyatining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rne va kichik biznesni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari	152